

ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING AYRIM XUSUSIYATLARI

Abbosova Zarnigor Raxmatilloevna

Navoiy shahri, Ibn Sino 45 Navoiy davlat pedagogika instituti (NDPI)

Xorijiy tillar fakulteti, magistratura mutaxassisi, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola terminologiyaning bugungi kundagi eng muhim muammolaridan biri – adabiyotshunoslik terminlarining yasalishi, nisbiy xarakteri hamda ilmiy tavsifi masalalarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik atamalarini kontrastlash, ya'ni qiyoslash orqali tadqiq etadi. Bunday qiyoslash har ikki fanning kontseptual apparatini tartibga solish tamoyillarini takomillashtiradi va filologiyaning terminologik tizimiga kiritilgan har ikkala terminologik tizim o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganadi. Shu bilan birga ushbu maqolada adabiyotshunoslik terminlarining xususiyatlari va ularning yasalish turlari ham tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *terminologiya, adabiyotshunoslik terminlari, affiks, suffiks, kontrastlash, dekada, integratsiyalashuv, neologizm.*

Abstract: *This article explores one of the most important problems of terminology today – the creation, relative character and scientific description of literary terms by contrasting, i.e. comparing, the terms of linguistics and literary studies. Such a comparison improves the principles of organizing the conceptual apparatus of both disciplines and explores the similarities and differences between both terminological systems included in the terminological system of philology. At the same time, this article also analyzes the characteristics of literary terms and the types of their formation.*

Key words: *terminology, literary terms, affix, suffix, contrasting, decade, integration, neologism.*

So'nggi dekadada tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislarining turli xil sohalaridagi, xususan adabiyotshunoslik terminologiyasi sohasiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi va buning asnosida adabiyot fanlarning integratsiyalashuv jarayonlari natijasida rivojlangan ilmiy axborot oqimi yuzaga keldi. Adabiyotshunoslik terminologiyasi tizimi jihatlarini o'rganib tahlil qilish hali hanuz o'z dolzarbliligini yo'qotgani yo'q zotan, bugungi kunga kelib ham adabiyotshunoslik terminologiyasiga bag'ishlangan dissertatsiyalar paydo bo'layotgani bundan dalolat beradi. Terminologiya sohasida ko'plab tilshunos olimlar o'z yondashuviga ega bo'lib, ularning har biri «termin» so'ziga turlicha ta'rif bergan. Masalan, A.Reformatskiy terminga: "Terminlar -bu maxsus so'zlardir" deb ta'rif bergan bo'lsa, A.V. Kalinin muayyan terminlarni "maxsus leksika" deb ataydi va ularni ikki guruhga ajratadi:

- Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.
- Terminlardan tashqari maxsus leksikaga professionalizmlar kiradi.

O'zbek tilshunos olimi Jamolxonov esa terminga nisbatan munosabatini quyidagicha ifodalaydi: «Terminlar fan – texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga

oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir. Masalan: gulkosa, shona (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi. Termin muayyan bir muhitda yuzaga kelishi mumkin, masalan: tadqiqot jarayonida, ishlab chiqarish korxonasida, konferensiyada, o'zaro muloqot jarayonida va hokazo. Odatda atama tilning fonologik, morfologik, morfosintaktik va leksik tuzilmalariga asoslangan holda yangi lisoniy tushuncha sifatida o'z ifodasini topadi. Shuni ta'kidlash joizki, atamalar har bir tilda turli xil bo'lib, uning paydo bo'lish tarixi, foydalanish sohasi va, albatta, terminlarning yasaliq qonun-qoidalari buning asosiy sabablari hisoblanadi. Termin tuzish va yaratish mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida maqsadli qidiruv sifatida ifodalanishi mumkin.

Ma'lumki, terminlar turli ilm-fan, texnika, IT va tilning maxsus sohalarining yangi tushunchalarni kirib kelishiga bo'lgan ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Tildagi so'zlar, xususan, terminlar ham ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi: tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida va o'zga tillardan tayyor til birliklarini o'zlashtirish orqali. Ma'lum bir milliy va xalqaro til yaratilgan ekan, shu til kodlanadi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shubhasizki, tillar uchun terminologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiya sohasida termin o'zlashtirish jarayonini tadqiq etish uzoq vaqt talab qilgan. Shunga qaramasdan, tadqiqotchi olimlarning aksariyati bu masalaning tarixiga e'tibor berishmaydi. Shu sababi ham yangi paydo bo'layotgan terminlarning foydalanish sohasidagi ziddiyatlarga duch kelamiz.

Shuningdek terminlarning ko'lami va mazmuni yil sayin kengayib bormoqda. Adabiyotni o'rganishimizning asosiy sababi esa uning butun insoniyat madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketgani bo'lib, adabiyoti rivoj topgan har qanday millatning, xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, butun dunyo mamlakatlari va xalqlari tomonidan keng miqyosda tan olinadi. Adabiyot tomonidan yaxshi qurollangan shaxs esa komil inson sifatida qabul qilinadi. Adabiyotshunoslik terminlari adabiyotni rivojlantiribgina qolmay, balki o'quvchilarga adabiyotni yaxshi tushunishlariga yordam beradi va o'qishdan zavq olishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Shuningdek, adabiy terminlar o'quvchilarning tasavvurlarini, belgi va sahnalarni yanada aniqroq ko'rsatishga, undashga ko'maklashadi. Adabiyotshunoslik terminlarining nisbiy xarakterda ekanligi ularning aniqlik mezonlarini bir tizimga asoslangan holda qayta ishlab chiqishni taqozo etadi. Adabiyotshunoslik terminlarining yana bir lingvistik xususiyati ularning muqobilsiz leksika sirasiga kirishidir. Mazkur yuzaga kelgan muammolarni tadqiq etish adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ingliz adabiyotshunosligi terminologiyasida yangi atamalarning paydo bo'lishi jarayoni o'zining eng yuksak nuqtasida desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu nafaqat ingliz tili uchun, balki, deyarli barcha tillar uchun ham o'ziga xosdir. Til leksikasiga yangi so'zlarning, ya'ni neologizmlarning paydo bo'lish ehtimolligi yuqori. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish neologizm turlaridan biri hisoblanadi.

Terminologiya tarixi va rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan o'zbek va chet el tilshunos olimlardan Eugen Vuster, A.V. Kalinin, R. Doniyorov, E. Drozen, G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, A.A. Reformatsky, V.G. Gaklar terminologiya sohasidagi tadqiqotlari tahsinga loyiq. Xususan, D.S. Lotte terminlarga ma'lum bir talablar ishlab chiqib, bu talablarga quyidagilarni kiritgan: tizimlilik, konkretga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tadbiiq etilganlik darajasi va boshqalar.

Ingliz va o'zbek tillarida affiksatsiya usuli bilan, ya'ni so'zga qo'shimcha qo'shish usuli bilan, termin yasalishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so'z yasovchi qo'shimchalar hamda so'z yasovchi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Ingliz va o'zbek tillarida affikslar qo'shilish o'rniga ko'ra prefiks, so'z oldidan, hamda suffiks, so'z oxiriga qo'shimcha qo'shish, xarakterida bo'ladi. Ushbu tillarda yasama so'zlar prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular so'z yasalishining eng faol usullari hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida yasama so'z mustaqil ma'noli tub so'zdan yasaladi. Huddi shu usul orqali so'z yasalishi ingliz tilida ham amalga oshadi. Masalan: narrate(o)+r, write+r, act+or, ish-chi, bosh+liq, san'at+kor kabi. Sodda terminlar ko'pgina hollarda yasama va murakkab terminlarni yasashda xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida adabiyotshunoslik terminlari yasalish xususiyatiga ega qabilidagi lingvistik omilni ifodalab keladi. Yasama adabiyotshunoslik terminlarining asosini o'zak va yasovchi qo'shimchalar tashkil qiladi. Terminologiyani o'rganishning eng samarali usuli morfologik usul hisoblanadi. Yasama adabiyotshunoslik terminlarining kelib chiqish genezisini aniqlashdagi qiziqish avvalombor ularning affiksial tarkibini ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan. Bunday terminlarning tub yoki o'zlashtirilganligi jihatidan ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'p hollarda ularning yunon, lotin, fransuz va boshqa tillardan o'zlashtirilganligining guvohi bo'lamiz. O'zlashtirilgan so'zlar bilan birga ularning affikslari ham ingliz tiliga kirib kelgan. Barcha o'zlashtirilgan affikslar ham ingliz tilida bir xil mavqega ega bo'lmagan bo'lsada, yetarli darajada produktiv affikslar qatoridan joy olgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslik terminologiyasida xizmat qiluvchi affikslar tizimida ko'p bo'lmagan va so'z yasash produktivligi kam samarali tub affikslar ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Absalomova, G. (2013). Terminologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Samarqand.
2. Abrams M. H. A Glossary of Literary terms. – Heinle & Heinle, a division of ThomsonLearning, Inc., 1999.
3. Жуков О. Р. К вопросу о специфике терминов лингвистики и литературоведения (сопоставительный анализ) / О. Р. Жуков // Научный диалог. – 2012. – № 12 : Филология.

4. Даниленко В. П. Русская терминология : опыт лингвистического Описания / В. П. Даниленко. – Москва : Наука, 1977.

5. Дегтярёва Л. М. Исследование современного содержания и развития терминов литературоведения : на материале английской и русской Литературоведческой терминологии : диссертация кандидата филологическаук / Л. М. Дегтярёва. – Москва, 2002.

6. Saidova, Muhayyo (2021) «SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN “THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS”,» Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>